

O'ZBEK VA YAPON TILLARIDA BUYRUQ-ISTAK MAYLI DEFINITSIYASI

Temirova Muslima Abdirashidovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Yapon filologiyasi kafedrasи yapon tili o'qituvchisi

muslima.temirova.2022@gmail.com

ANNOTATSIYA

Yapon va o'zbek tillari grammatikasida fe'l so'z turkumiga kiruvchi mayl kategoriyasi ko'p marta tadqiqot obyekti bo'lgan. U mavzu bo'yicha qator ilmiy ishlar oshirilgan bo'lsa-da, hali-hanuz qiyosiy tadqiqot bo'yicha tilshunoslik diqqatini jalb etmoqda. Zero vogelikni yangitdan idrok etish zarurati nafaqat jamiyatning iqtisodiyoti, siyosatini, balkim ilm-fan, madaniyat ravnaqini ham qamrab olmoqda. Xususan, tilshunoslik muammolarini ham yangicha yo'sinda talqin etishiga urinish katta qiziqish paydo bo'lishiga sabab bo'lishi tayin.

Kalit so'zlar: mayl kategoriyasi, grammatical shakl, mayl turlari, zamon kategoriyalari, vazifadosh shakllar.

ABSTRACT

In the grammar of Japanese and Uzbek languages, the category of inclination, which belongs to the group of verbs, has been the object of research many times. Although a number of scientific works have been carried out on the subject, it still attracts the attention of linguistics in the field of comparative research. Because the need for a new perception of reality covers not only the economy and politics of society, but also the development of science and culture. In particular, an attempt to interpret the problems of linguistics in a new way is sure to cause great interest.

Key words: mood category, grammatical form, types of mood, tense categories, functional forms

KIRISH

Hozirgi kunga qadar olib borilgan tadqiqot ishlarida, darslik, qo'llanmalarda va ilmiy adabiyotlarda mayl kategoriyasi an'anaviy tarzda "harakat bilan subyekt orasidagi aloqaning vogelikga munosabati"¹ deb ta'riflanadi. Bevosita mayl bo'lmish Buyruq-istak mayli haqida so'z yuritarkanmiz avval, yapon va o'zbek tillaridagi "buyruq-istak mayli" definitsiyasini oydinlashtirish muhimdir.

Ilmiy manbalardan ayon bo'lishicha, yapon tiliga "buyruq-istak mayli" atamasi tilshunoslikka xitoy tilidan kirib kelgan termindir. U yapon tilida 「命令法」meirei

¹ Gulomov A. Fe'l. – T.: "Fan", 1954. – 55-b.

hou - ‘buyruq mayli’ ma’nosini anglatib, ya’ni biror xatti-harakatga undash ma’nosini anglatadi.

Ma’lumki, o‘zbek va boshqa ko‘pchilik turkiy tillarda “buyruq-istik mayli” nomi bilan bir gruppaga birlashuvchi formalar yasalishi jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega har bir shaxs uchun maxsus formalar mavjudligi, II shaxs birligining nol ko‘rsatkichli bo‘lishi va hokazolar.

Bu mayl guruhiga birlashuvchi formalarning o‘zaro munosabatini belgilashda va ulrni nomlashda o‘zbek tilshunoslari o‘rtasida birlik yo‘q. Masalan, A. G‘ulomov bu formalarni “buyruq mayli” nomi bilan bir guruhga birlashtiradi². A. KOnonov bulardan II va III shaxs formalarigina buyruq maylini tashkil etadi, I shaxs formalari esa semantic jihatdan ham, formal jihatdan ham buyruq mayli formalariga mos kelmaydi., deb qaraydi. Shuning uchun II va III shaxs formalarini buyruq mayli, I shaxs formalarini istak mayli nomi bilan alohida mayl turlariga ajratadi³. T. Xo‘jayev ham bu formalarni shu xilda ikki mustaqil guruhga bo‘ladi. Shuning uchun o‘zining kandidatlik dissertatsiyasida II va III shaxs formalarinigina tekshirish obyekti qilib olgan⁴. V. Reshetov esa, bu formalarni “buyruq mayli” nomi bilan birlashtirib, har bir shaxs formalarini ma’nosiga ko‘ra maxsus nomlar bilan alohida guruhlarga bo‘ladi: I shaxs formalarini “xohish mayli”, II shaxs formalarini “buyruq mayli”, III shaxs formalarini “istik mayli” nomi bilan ataydi⁵. Buyruq-istik mayli formalarni V. Polivanov ham shu xilda uch guruhga ajratgan. Lekin u har bir shaxs formalarini mustaqil mayli kategoriyasi deb qaragan, ya’ni I shaxs formalarini “xohish mayli”, II shaxs formalarini “buyruq mayli”, II shaxs “istik mayli” nomi bilan alohida turlarga bo‘lgan.

Buyruq mayli bir qancha shakllarga ega bo‘ladi.

1. Neytral-xushmuomila iltimos

a) oldin o‘tgan zamon ravishdoshi+下さい *kudasai*

Masalan, 座ってください *suwatte kudasai* o‘tiring, iltimos. 書いて下さい *kaite kudasaiyozing*, iltimos. ください *kudasai* shakli くださいませんか *kudasaimasenkaga almashtirilganda* bu shaklga yanada xushmuomila tus beradi.

Shart mayli definityasi -bosh gapda ifodalanib kelayotgan mavzuning sababi va kelib chiqishi bilan bog`liq bo`lgan tobe gapda ifodalanib keladigan qismiga shart

²Gulomov

³А. Кононов. Грамматика современного узбекского литературного языка, М.-Л., стр. 205-207, 234-235.

⁴Т. Ходжаев. Повелительное наклонение в современном узбекском языке, АКД, Самарканд, 1963, стр.9.

⁵ В.Решетов. Основы фонетики и грамматики узбекского языка, Ташкент, 1965, стр. 158-163.

mayl gapi deb ataladi. Yapon yili grammatikasida shart maylini ifodalovchi bog`lovchilari “to(と)”, “ba (ば)”, “tara(たら)”, ”nara(なら)” dan iborat.

Ularni gapda quyidagicha yasash mumkin.

tara(たら)、_____

Bosh gap (前分) to(と)、 tobe gap(後分) gap oxiri(文末)

条件表す従属節 ba(ば)、 asosiy gap(主節)

(条件節) nara(なら)、

Masalan :

この薬を飲むと熱が下がる。Kono kusuri wo nomu **to** netsu ga sagaru. Bu dorini ich(sam)ishim **bilan**, issig`im tushadi. この薬を飲めば熱が下がる。Kono kusuri wo nome**ba** netsu ga sagaru. Bu dorini ichsam, issig`im tushadi. この薬を飲んだら熱が下がる。Kono kusuri wo nondara netsu ga sagaru. Bu dorini ichsam, issig`im tushadi. この薬を飲むなら/飲んだなら熱が下がる。Kono kusuri wo nomunara/ nondanara netsuga sagaru. Bu dorini ichsam, issig`im tushadi.

Yuqoridagi to`rtta yapon tili shart maylini yasovchi bog`lovchilarning bir-biridan farqli jihatlari, ishlatish hollari haqida yapon tili ta`limi tomonidan juda ko`p tadqiqot ishlar orqali o`rganilgan. Shu jumladan, grammatik qoidalar tuzilmasi, mashqlar jamlanmasi va boshqa bir qancha ko`p qo`llanmalar ishlab chiqilgan. Shunga qaramasdan, yapon tili shart maylining ishlatilishda hali-xanuz xatoliklar kelib chiqmoqda. Shu sabab ham shart mayli bog`lovchilari (“to, ba, tara, nara”) ning qanday farqli jihatlari borligini hamda, ularning ishlatilishi va o`zbek tili shart mayli bog`lovchisi bilan solishtirgan holda ishni olib borishga harakat qilinadi.

Yapon tilida shart mayli olimlarning diqqatini yuz yildan ortiq vaqtlardan beri o‘ziga tortib kelmoqda. Shu vaqtida shart mayli kategoriyasi har tomonlama o‘rganilinib, ko‘pgina ilmiy ishlar yozilgan.

Shart mayli haqida o‘zbek tilshunosligida ham ko`p ilmiy ishlar olib borilgan. Shart maylining sentaktik funksiyalari va ma’nolari haqida muvaffaqiyatlil ishlagan olimlardan Tursunovdir.

“TO” shart maylining qo`llanish xususiyatlari. Shart mayli bog`lovchisi “to (と)” ning ma’no xususiyatlari, gapda yasalish qoidasi, asosiy gapning oxirida ma’no ifodalovchi ishlatiladimi, o`tgan zamon shaklida ham ishlatish hollari mavjudmi va

“to (と)” bilan “ba (ば), tara (たら), nara (なら)” ning farqli jihatlarini quyidagi holatlaridagi gaplar orqali ko`rib chiqiladi.

Shart mayli “to (と)” ning yasalish usuli:

Fe'l (動詞)	Sifat(イ形容詞)	Sifat(ナ形容詞) + Ot (名詞)	to(と)
行く 行かない	+ to(と) 忙しい 忙しくない	+to(と) 元気休み 元気やすみじゃない	+to(と)

“to (と)” ning ma’no xususiyatlari:

O`tgan zamон bo`lmagan vaziyatlarda.

Bosh gapning oxirisida, tezda sodir bo`ladigan, so`zsiz sodir bo`ladigan, davom etib sodir bo`ladigan ishlarni ifodaydi.メールを出すと、すぐ返事が来る。Me-ru wo dasu **to**, sugu henji ga kuru.Elektron xatni jo`nat(sam)ishim **bilan** ,tezda javobi keladi.このボタンを押すと、カーテンが閉まります。Kono botan wo osuto, ka-ten ga shimarimasu.Bu tugmani bos(sangiz)ishingiz **bilan**, parda yopiladi.Umumiyl, obyektiv shart , natijani ifodalaganda.1と2を出すと、3になる。1to 2 wo dasu **to**, 3 ni naru.1 bilan 2 ni qo`shta, 3 bo`ladi.春が来ると、桜の花が咲く。Haru ga kuru **to**, sakura no hana ga saku.Bahor kel(sa)ishi **bilan**, sakura guli ochiladi.十五夜になると、まんまるな月が上がる。Jyuugo yoru ni naru **to**, manmaruna tsuki ga agaru.15 kun tun bo`ls(a)ishi **bilan**, to`lin oy chiqadi.

酒を飲むと、顔が赤くなる。Sake wo nomuto, kao ga akaku naru.Sake ich(sam)ishim **bilan**, yuzim qizaradi.Hozirgi paytdagi odatlar. 天気がいいと、毎朝ジヨギングに行く。Tenki ga ii **to**, mai asa jyogingu ni iku.Ob-havo yaxshi bo`l(sa)ishi **bilan**, yugurgani boramiz.彼はお金があると、パチンコに行く。Kare ha okane ga aruto, pachinko ni iku.Unda pul bo`l(sa)ishi **bilan**, pachinko o`ynagani boradi.「～ないと」の

形で困難・警告を表す。勉強しないと、わからなくなるよ。Benkyou shinai **to**, wakaranaku naruyo.Dars qilmasa, tushunmay qoladi-ku.お金がないと困る。Okane ga nai **to** komaru.Pul bo`lmasa qiynalib qoladi.

O`tgan zamon gapda qo`llanilishi Yapon tili shart mayli “to” (「～と」)ning o`tgan zamonda ishlatilish holatlarida ochilish, insonga bog`liq fe'llar, o`tgan zamon odatlari va shu kabilar ifodalananadi. ドアを開けると、小さな子供がドアの前に立っていた Doa wo akeru **to**, chiisana kodomoga doa no maeni tatte ita. Eshik ochil(**sa**)ishi bilan, kichkina bola eshik oldida turgan ekan. (kashf) 男は部屋に入ると、友達に電話した。(同一人物連續動作=「～て」) Otoko ha heya ni hairuto, tomodachini denwa shita. Erkak xonaga kir(**sa**)ishi bilan, do`stiga qo`ng`iroq qildi. (bir vaqtga bog`liq ish-harakat “～te”)彼は酒を飲むと、暴力を振るった。(過去の習慣)Kare ha sake wo nomuto, bouriyoku wo U kishi sake ich(**sa**)ishi bilan, (11) va (12) misollarga ko`ra, tabiat hodisalar, tabiiy hodisalar, haqiqat, mantiq, nazariya, umumiyl bo`lgan faktlarni, obyekтивликка xos bo`lgan mayl, natijaning sababiga aloqadorlikni ko`rsatadi. Aniqrog`i bir holat ro`y berishi bilan , uning orqasidan tabiiy natija sodir bo`ladi.”Haruni ni naru”(「春になる」), “Jyuugo ya ni naru”(「十五夜になる」), “1 ni 2 wo dasu”(「1に2をたす」), “Sake wo nomu”(「酒を飲む」) va shunga o`xshash mayllarda, “Sakura no hana ga saku”(「桜の花が咲く」), “Manmaruna tsuki ga agaru”(「まんまるな月が上がる」), “3 ni naru”(「3になる」), “Kao ga akaku naru”(「顔が赤くなる」) kabi natijalar keltirib chiqaradi. Bosh gap (“jyouken”条件) mayl va tobe gap esa, (kekka”結果) natijani tabiiy ravishda bog`lash uchun xizmat qiladigan shart mayli bog`lovchisi “to”(と) hisoblanadi.したがって、かれはちょっとからかわれると、すぐに本気で怒り出す。 Kare ha chyotto kara kawareru **to**, suguni honkide okoridasu.U bola ozginasini bil(**sa**)ishi bilan, tezda jahli chiqib ketadi.

Yuqoridagi misol gaplardan, o`ziga xos alohida harakatlarga aloqadorligi, suhbatdoshning maqsadi, buyruq, ruhsat va shu kabi holatdan ifodalangan paytda “to”(「と」) ni ishlatib bo`lmaydi. “to”(「と」) suhbatdoshning obyekti bo`limgan

umumiyl, har tomonlama to`g`ri kelishiniifodalaydi. Ya`ni, “to” gap oxiriga qo`shilmaydi, yordamchi fe'llarda 使役 ”seru, saseru” (せる、させる)、majhul nisbat “reru, rareru” (れる、られる)、yechim “da,desu” (だ、です), inkor “nai, masen” (ない、ません) bilan qo`shilib keladi. Lekin o`tgan zamon shakli “ta” (「た」) ga qo`shlib kelish hollari yo`q. Agar o`tgan zamon shakli “ta” (「た」) ni ishlatsa, alohida o1ziga tegishli holatni ifodalab qo`yish mumkin. Shart mayli ”to” (「と」) ning gapda turlanishi faqatgina hozirgi zamonga tegishli bo`lishi kerak.

Xulosa qilib, yuqoridagi misollardan kelib chiqib, shart mayli “to (「と」) ning gapda ishlatilishini quyidagicha bo`lish mumkin.”

a) Umumiy, yagona holatni ifodalash uchun;

春になると、桜が咲きます。 (でも言いかえが可能) Haru ni naru **to**, sakura ga sakimasu. Bahor kel(**sa**)**ishi bilan**, gullar ochiladi. ((「ば」)”ba” ishlatish holati ham bor)

b) Sodir bo`lgan ish-harakat, kashf etilgan holatlarda; 空を見ていると、UFO が飛んできた。 Sora womite iru **to, UFO ga tonde kita. Osmonga qara(**sa**)**shim bilan**, UFO uchib keldi.**

c) Shart maylida hamda buyruq-istik maylida ham ishlatilishi mumkin;

ここをまっすぐ行くと、右手に大きな建物が見えます。(仮定条件)

Koko womassugu ikuto, migite ni ookina tatemono ga miemasu. Bu yerdan to`g`ri borsangiz, o`ng qo`lda katta bino ko`rinadi. 仕事をやめるとすぐにお金がなくなつた。(確定条件) Shigoto wo yameruto suguni okanega naku natta. Ishdan bo`shashimbilan, pulim tugadi. (Buyruq-istik mayli)

d) Tobe gapda fikr,maqsad,buyruq, iltimos kabilar ifodalanadi;

山田さんに会うと、よろしくお伝えください。→×(「たら」を使う)

Yamada san ni auto, yoroshiku otsutae kudasai. Janob Yamada bilan uchrashsangiz, salom ayting. →×(「たら」”tara” ham ishlatilishi mumkin).

“BA” shart maylining qo`llanish xususiyatlari. Shart mayli bog`lovchisi “ba ()” ning ma’no xususiyatlari, gapda yasalish qoidasi, asosiy gapning oxirida ma’no

ifodalovchi ishlatiladimi, o`tgan zamon shaklida ham ishlatish hollari mavjudligi va “ba (ば)” bilan “to (), tara (たら), nara (なら)” ning farqli jihatlarini quyidagi holatlaridagi gaplar orqali ko`rib chiqiladi.

Shart mayli “ba (ば)” ning yasalish usuli:

Fe'l (動詞)	Sifat(イ形容詞)	Sifat(ナ形容詞) Ot (名詞)+だ	+ba (ば)
行け [+ ba (ば)]	忙しけれ [+ ba (ば)]	元気休み 元気やすみじやない	[+ ba (ば)]
行かなければ [+ ba (ば)]	忙しくなけれ [+ ba (ば)]		

Avval, ba (ば) da qanday ishlatilish xususiyati va ma'no xususiyati borligi haqida ko`rib chiqamiz.

“ba (ば)” ningma'noxususiyatlari:

Shart mayli ba(reba deb ham ishlatilishi mumkin) bog`lovchili gap haqida inkor o`tgan zamon va o`tgan zamon holatida ko`rib chiqamiz.

1. O`tgan zamon bo`lmagan vaziyatlarda.

Umumiyl (subyektiv) shart mayli, mantiqiy, nazariyani ifodalab keladi. 春が来れば、花が咲く。Haruga kureba, hana ga saku.Bahor kelsa, gullar ochiladi.

話せば、分かる。Hanaseba , wakaru. Gapirsangiz, tushunamiz. ちりも積もれば、山となる Chiri mo tsumoreba, yama to naru. Chang ham yeg'ilsa, tog` bo`lur.

Qaytarish va odat bo`lib qolgan holatlarni ifodalaydi. 隣の犬は主人を見れば、飛んでくる Tonari no inu ha shyujin wo mireba, tonde kuru.Qo'shni kuchuk o`z xo`jayinini ko`rsa, uchib keladi. 天気がよければ、ジョギングに行く。Tenki ga yokereba, jyogingu ni iku.Ob-havoyaxshi bo`lsa, yugurgani boraman.“**savol so`z +ba ii (ばい い)**” shaklda savol so`rash holatini ifolalaydi. 音を大きくするときは、どうすればいいですか。On wo ookiku suru tokiha, dou sureba ii desuka.Ovozini baland qilinyapgan

payt, nima qilsayaxshi ?あしたは何時に来ればいいですか。Ashita ha nanji ni kureba ii desuka.Ertaga soat nechada kelsam yaxshi?

Gap oxirida qo`shimcha sifatida kelish holatini ifodalaydi.

A: どうしようかな。

B: ともかくやってみれば。

A: doushyoukana.

B: tomokaku yatte mireba.

A:Nima qilsam ekan-a.

B: Nima bo`lsa ham, qilib ko`rsangiz-chi.

学生時代は、冬になれば、スキーバスかりしていた。

(過去の習慣)Gakusei no jidai ha, fuyu ni nareba, suki- bakari shite ita.Talabalik davrimda, qish bo`lsa, faqat konki uchardim.(O`tgan zamondagi odat)

よく見れば、彼女には美人ではなかった。

(認識)Yoku mireba, kanojyo ni ha bijin deha nakatta. Yaxshilab qarasam, u qiz chiroyli emas ekan.

(tushunish) 時間があれば、映画を見に行けるだろう。

Jikan ga areba, eiga wo mini ikeru darou.

Yuqoridagi gaplarda bosh gap ”jikan ga areba” (「時間がある」) ham, tobe ham ”eiga wo mini ikeru” (「映画を見に行く」) ham kelajak, ことも、未来の、 kelajakda bor bo`lishi, 未実現の、halqilinmagan holatlarda ishlatiladi. Bunda gapmayllari umumiylar qilib shart mayli deb ataladi. Shart mayli deb, faktlarning aloqasi bo`lmay, zamonlare’tiborgaolinadi. Quyidagi gaplarda ko`rishimiz mumkin.

Shart maylidagi fe’llar boshqa biror ish-harakatning amalga oshishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo`lgan ish-harakat ma’nosini anglatadi. Shart mayli fe’l o`zagi yoki negiziga -sa qo`shimchasini qo`shish bilan hosil bo`ladi va undan so`ng shaxs-son qo`shimchalari qo`shiladi: borsam, borsang, borsa, borsak, borsangiz, borsalar kabi.(1-jadval) Lekin yapon tili shart mayli “to” (「と」) bog`lovchisi gapda ishlatilganda, -sa qo`shimchasidan tashqari -ishi bilan deb ham tarjima qilinish hollari ko`p uchraydi.

Yapon tili “to, ba, tara, nara” (「と・ば・たら・なら」) shart maylining gapda ishlatish qoidasi, o`zbek tili shart mayli bilan solishtirib (jadval-2) chiqilgan. O`zbek tili –sa shart mayli orqali gap yasalishi, yapon tili o`rganuvchilari uchun yapon tili shart mayli “to, ba, tara, nara” (「と・ば・たら・なら」) ning bir-biridan farqlab olish qiyin kechadi.

Jadval-1 O`zbek tili shart maylining yasalishqoidasi.

(bormoq「行く iku」fe’li misolida)

I shaxs	Men (私 watashi)	bor+sa+m
	Biz (私達 watashitachi)	bor+sa+k
II shaxs	Sen (あなた anata)	bor+sa+ng
	Siz (あなたがた anatagata)	bor+sa+ngiz
III shaxs	U (彼 kare 、 彼女 kanojyo)	bor+sa
	Ular (彼ら karera)	bor+sa+lar

Fe’l o`zagiga shart mayli qo’shimchasini qo’shib, egalik qo’shimchasi birlik I shaxsga –mni, II shaxsga –ng, III shaxsga esa, hech qanday qo’shimcha qo’shilmaydi. Ko`plik I shaxsga –k, II shaxsga –ngiz, III shaxsga esa, – lar egalik qo’shimchalari qo’shish orqali gap yasaladi.

Jadval-2. O`zbek tili va yapon tili solishtirma tarjima

Yapon tilidagi gaplar	O`zbek tilidagi gaplar
安いと、売れます。 Yasui to , uremasu.	(Arzon bo`lishi bilan sotiladi.)
安ければ、売れます。 Yasukereba, uremasu.	Arzon bo`lsa, sotiladi .
安かつたら、売れます。 Yasukattara, uremasu.	
安いなら、売れます。 Yasui nara , uremasu.	

Yuqoridagi 4 xil yapon shart mayli yapon tildagi gaplarni o`zbek tiliga tarjima qilingan payt shart mayli yapon tilidagi gaplarda 4 xil usul bilan yasaladi. O`zbek tili esa, birgina –sa qo'shimchasi orqali tarjima qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Abdug'afforov I. F. O'zbek tili grammatikasi. –T.: "O'qituvchi", 1999. – 238 b.
2. Abdurahmonov G., Rustamov A., Qadimgi turkiy til. –T.: "Fan", 1982. – 216 b.
3. Abdurahmonov G., Shukurov SH., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. –T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2008. – 320 b.
4. Feyda Umarbek. O'zbek va uyg'ur tillarida o'tgan zamon fe'llarining badiiy nutqda ishlatilishi: Filol. fan. nomz. ...diss. –T., 1998. –102 b.
5. 久野スム『日本文法研究』(大修館) #スム= 日 + 章. 1973. - 318 p.
6. 井上優 (2001) 中国語・韓国語との比較から見た日本語のテンス・アスペクト』『月刊言語』12月号